

ZAMANOVIY HUQUQDA QIMMATBAHO TOSHLAR VA QIMMATBAHO METALLAR BILAN BO'G'LIQ FUQAROLIK HUQUQIY MUNOSABATLARNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI

Adolat Settiyeva

TDYU Fuqarolik protsessual va iqtisodiy protsessual huquqi kafedrası o'qituvchisi
adolatsettiyeva@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20155346>

Annotatsiya: Mazkur maqolada qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallar bilan bog'liq fuqarolik-huquqiy munosabatlarning huquqiy rejimini takomillashtirish masalalari kompleks tarzda tahlil qilingan. Tadqiqotda ushbu obyektlarning huquqiy maqomi, mulk huquqi doirasidagi o'ziga xos jihatlari hamda fuqarolik muomalasidagi o'rni ochib berilgan. Germaniya huquqidagi "Bürgerliches Gesetzbuch" normalari, Rossiya Federatsiyasining qonunchiligi normalari hamda Yevropa Ittifoqining MiCA Regulation doirasidagi yondashuvlar asosida taqqosloviiy-huquqiy tahlil amalga oshirilgan. Maqolada amaldagi huquqiy rejimning asosiy muammolari, xususan, normativ tartibga solishning yetarli darajada differensiyalanmaganligi, mulk huquqi va davlat nazorati o'rtasidagi muvozanat masalalari, fuqarolik muomalasining shaffof emasligi hamda raqamli aktivlarning huquqiy maqomi bilan bog'liq bo'shliqlar aniqlangan. Shuningdek, qimmatbaho obyektlarning iqtisodiy funksiyasiga qarab differensiyalangan huquqiy rejimni joriy etish, mulk huquqini mustahkamlash, sertifikatlash va identifikatsiya tizimlarini rivojlantirish, raqamli aktivlarni huquqiy jihatdan tartibga solish hamda xalqaro huquqiy integratsiyani kuchaytirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ilgari surilgan.

Tadqiqot natijalari qimmatbaho toshlar va metallar bozorining huquqiy tartibga solinishini takomillashtirishga, uning shaffofligi va investitsion jozibadorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar. *qimmatbaho toshlar, qimmatbaho metallar, fuqarolik huquqi, huquqiy rejim, mulk huquqi, investitsion aktivlar, raqamli aktivlar, tokenlashtirish, fuqarolik muomalasi, sertifikatlash, xalqaro xususiy huquq*

Qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallar zamonaviy iqtisodiy tizimda alohida o'rin tutuvchi fuqarolik huquqi obyektlari hisoblanadi. Ularning yuqori qiymati, likvidligi, investitsion jozibadorligi hamda xalqaro muomaladagi faol ishtiroki ushbu obyektlarga nisbatan maxsus huquqiy rejimni shakllantirish zaruratini yuzaga keltiradi. Shu bilan birga, raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi, yangi moliyaviy instrumentlarning paydo bo'lishi va global savdoning kengayishi qimmatbaho metallar va toshlarning huquqiy maqomini qayta ko'rib chiqishni talab etmoqda.

Shundan kelib chiqib, fuqarolik-huquqiy munosabatlarning huquqiy rejimini takomillashtirish, xususan, huquqiy rejimni aniqlashtirish va differensiyalash ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb masala sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, hozirgi fuqarolik qonunchiligida qimmatbaho metallar (oltin, kumush, platina) va qimmatbaho toshlarning huquqiy maqomi ko'pincha umumiy mulk obyekti sifatida belgilanadi. Ammo zamonaviy iqtisodiyot sharoitida ularni quyidagicha differensiyalash zarur:

- xom ashyo shaklidagi resurslar (yer qa'ridan qazib olingan boyliklar);
- investitsion aktivlar (quyma oltin, bank metall hisobvaraqlari);
- iste'mol mahsulotlari (zargarlik buyumlari);

kolleksion va noyob obyektlar (qimmatbaho toshlar, noyob olmoslar).

Bunda, fuqarolik huquqida “huquqiy rejim” deganda muayyan obyektga nisbatan qo’llaniladigan huquqiy normalar majmui, ya’ni egalik qilish, foydalanish va tasarruf etish tartibi tushuniladi. Qimmatbaho toshlar va metallar uchun ushbu rejim nafaqat klassik mulk huquqi institutlari bilan, balki moliyaviy nazorat, bojxona tartibi va soliq mexanizmlari bilan ham uzviy bog’liqdir. Xususan, Germaniya huquqida qimmatbaho metallar umumiy ashyolar sifatida Bürgerliches Gesetzbuch normalari asosida tartibga solinadi, biroq ularning muomalasi moliyaviy va bank qonunchiligi bilan qo’shimcha ravishda cheklanishi mumkin. Rossiya Federatsiyasida esa ushbu obyektlar maxsus huquqiy maqomga ega bo’lib, ular Federal Law No. 41-FZ bilan alohida tartibga solinadi va davlat nazorati kuchli hisoblanadi. Yevropa Ittifoqi darajasida yagona kodifikatsiyalangan akt mavjud bo’lmasa-da, mazkur soha pul yuvishga qarshi kurash, moliyaviy monitoring va kriptoaktivlar bozorini tartibga soluvchi MiCA Regulation kabi hujjatlar orqali qamrab olinadi.

Amaldagi huquqiy rejimning tahlili bir qator muammolar mavjudligini ko’rsatadi. Avvalo, qimmatbaho toshlar va metallar turli iqtisodiy funksiyalarni bajarishiga qaramay, ko’plab huquqiy tizimlarda ular umumiy mulk obyekti sifatida yagona shaklda tartibga solinadi. Bu esa xom ashyo, investitsion aktiv va iste’mol mahsulotlari o’rtasidagi farqlarni yetarli darajada hisobga olmaydi. Ikkinchidan, mulk huquqini amalga oshirishda davlat va xususiy sektor o’rtasidagi muvozanat masalasi dolzarb bo’lib qolmoqda. Masalan, Rossiya modelida davlatning ustuvor roli xususiy tashabbusni cheklashi mumkin, Germaniya modelida esa aksincha, erkin muomala ustuvor bo’lib, davlat nazorati nisbatan yumshoq shaklda amalga oshiriladi. Uchinchi muammo fuqarolik muomalasining yetarli darajada shaffof emasligi bilan bog’liq bo’lib, sertifikatlash tizimining zaifligi soxta mahsulotlar aylanmasiga sharoit yaratadi. To’rtinchidan, raqamli iqtisodiyot sharoitida paydo bo’lgan tokenlashtirilgan oltin va boshqa aktivlarning huquqiy maqomi hali to’liq aniqlanmagan. Germaniyada bunday aktivlar qisman bank qonunchiligi, xususan “Kreditwesengesetz” doirasida tartibga solinayotgan bo’lsa, Yevropa Ittifoqida bu masala yangi qabul qilingan normativ hujjatlar orqali bosqichma-bosqich hal etilmoqda.

Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun qimmatbaho toshlar va metallar bilan bog’liq fuqarolik-huquqiy munosabatlarning huquqiy rejimini kompleks takomillashtirish zarur. Eng avvalo, ushbu obyektlarni iqtisodiy funksiyasiga qarab differensiyalash lozim. Ya’ni, ularni tabiiy resurslar, investitsion aktivlar, iste’mol mahsulotlari va kolleksion obyektlarga ajratish orqali har bir toifa uchun alohida huquqiy rejim belgilanishi maqsadga muvofiqdir. Bu yondashuv turli davlatlar tajribasini uyg’unlashtirish imkonini beradi va huquqni qo’llashda aniqlikni ta’minlaydi.

Shu bilan birga, mulk huquqini mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, xususiy mulk huquqining kafolatlarini kengaytirish, davlat nazoratini maqbullashtirish va mulkni identifikatsiya qilish tizimini joriy etish zarur. Bu borada zamonaviy texnologiyalar, jumladan, blokcheyn asosidagi reyestrlar samarali vosita bo’lib xizmat qilishi mumkin. Fuqarolik muomalasining shaffofligini ta’minlash ham ustuvor vazifalardan biri bo’lib, majburiy sertifikatlash, markirovka tizimlari va elektron savdo platformalarini huquqiy tartibga solish orqali amalga oshiriladi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida qimmatbaho metallar va toshlarning yangi shakllari paydo bo’layotganini inobatga olib, ularning huquqiy maqomini aniq belgilash zarur.

Tokenlashtirilgan aktivlarni fuqarolik huquqi obyektlari sifatida tan olish, ularning muomalasini tartibga solish va investorlar huquqlarini himoya qilish zamonaviy huquqiy siyosatning muhim yoʻnalishiga aylanishi lozim. Bu borada Yevropa Ittifoqining kriptoaktivlar bozorini tartibga solishga qaratilgan yondashuvi muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, xalqaro xususiy huquq doirasida kollizion muammolarni hal etish ham muhimdir. Qimmatbaho toshlar va metallar global muomalaga ega boʻlgani sababli, turli davlatlarning huquqiy tizimlari oʻrtasidagi tafovutlar nizolarni hal etishda murakkablik tugʻdiradi. Shu bois xalqaro standartlarni ishlab chiqish, huquqiy normalarni unifikatsiya qilish va arbitraj mexanizmlarini rivojlantirish zarur.

Xulosa qilib aytganda, qimmatbaho toshlar va qimmatbaho metallar bilan bogʻliq fuqarolik-huquqiy munosabatlarning huquqiy rejimini takomillashtirish tizimli va kompleks yondashuvni talab etadi. Germaniya, Rossiya va Yevropa Ittifoqi tajribasi shuni koʻrsatadiki, samarali huquqiy model differensiyalashgan tartibga solish, mulk huquqining mustahkam kafolatlari, shaffof fuqarolik muomalasi va raqamli iqtisodiyotga moslashuv elementlarini oʻz ichiga olishi lozim. Mazkur yoʻnalishlarda izchil islohotlar amalga oshirilishi qimmatbaho resurslar bozorining barqaror rivojlanishi, investitsion jozibadorligi va huquqiy xavfsizligini taʼminlashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Саватье Р. Теория обязательств. — М.: Прогресс, 1972.
2. Medicus D. Bürgerliches Recht. — München, 2018.
3. Basedow J. EU Private Law. — Oxford, 2020.
4. Palandt. Bürgerliches Gesetzbuch Kommentar. — 2022.
5. EU Financial Monitoring Framework.
6. MiCA Regulation, 2023.
7. RF Federal Law “On Digital Financial Assets”, 2020.
8. FATF Recommendations (Financial Action Task Force).